

BEGALI QOSIMOV – MANBASHUNOS OLIM

Nurmatullayeva Zilola Xikmatilla qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrası 1-bosqich magistranti

E-mail: zilolanurmatullayeva@gmail.com Tel: (97) 4005878

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada adabiyotshunos, matnshunos va manbashunos olim Begali Qosimovning ilmiy faoliyati, yaratgan asarlari, tahlil etgan tadqiqotlari haqida muxtasar so'z boradi. Maqolaning kirish qismida adabiyotshunos, manbashunos va matnshunos olim Begali Qosimovning tarjima holi, ilmiy faoliyatidan ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, asosiy qismda Begali Qosimovning tug'ilib voyaga yetgan ona zaminiga muhabbat tuyg'usi, talabalik davridagi ilmga bo'lgan ishtiyoqi va umrining keyingi yillarida o'zbek adabiyotiga qo'shgan salmoqli hissasi atoqli kasbdosh ustoz hamda professorlarning xotiralari orqali aks ettiriladi. Xulosa qismda olining millat va xalq uchun yonib yashagani, Vatan kelajagi uchun qilgan sa'y- xarakatlari, amalga oshirgan tadqiqotlaridagi tub mohiyat xalqni maorif- ma'naviyatga chorlash ekanligi go'zal tashbehtar bilan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Begali Qosimov, adabiyot, jadidchilik adabiyoti, milliy uyg'onish davri, olim, tadqiqot, matnshunos, manbashunos, millat, maorif, ma'naviyat.

АННОТАЦИЯ: В данной статье кратко рассказывается о научной деятельности Бегали Касимова, литературоведа, текстолога и источниковеда, его трудах и анализируемых исследованиях. В предисловии статьи содержатся сведения о биографии и научной деятельности Бегали Касимова, литературоведа, источниковеда и текстолога, а в основной части описывается любовь Бегали Касимова к родине, где он вырос, его увлечение наукой в период его жизни. студенческие годы и дальнейшая жизнь. Его значительный вклад в узбекскую литературу отражен в воспоминаниях известных педагогов и профессоров. Его значительный вклад в узбекскую литературу отражен в мемуарах известных учителей и профессоров. В заключительной части с красивыми аллюзиями раскрывается, что ученый страстно жил ради нации и народа, его усилиями ради будущего Родины, а основная суть его исследований - призыв народа к образованию и духовности.

Ключевые слова: Бегали Касимов, литература, джадидистская литература, период национального возрождения, учёный, исследователь, текстолог, источниковед, нация, образование, духовность.

ANNOTATION: This article briefly talks about the scientific activity of Begali Kasimov, a literary critic, textologist and source scholar, his works, and his analyzed researches. The introduction of the article contains information on the biography and scientific activities of Begali Kasimov, a literary critic, source scholar and textual scholar, while the main part describes Begali Kasimov's love for his motherland, where he grew up, his passion for science during his student days, and his later life. His significant contribution to Uzbek literature is reflected in the memoirs of famous teachers and professors. In the concluding part, it is revealed with beautiful allusions that the scientist lived passionately for the nation and the people, his efforts for the future of the Motherland, and the fundamental essence of his researches is to call the people to education and spirituality.

Key words: Begali Kasimov, literature, Jadidist literature, national renaissance period, scientist, research, textualist, sourceologist, nation, education, spirituality.

O‘zbek adabiyotshunoslik ilmi shu kunga qadar ko‘pgina olimlarni xalq ma‘rifati, ziyosini yuksaltirish uchun yetishtirib keldi. Ana shu zimmasiga yuklatilgan vazifani ongli ravishda anglab, ilm-u ma‘rifat olamida o‘zining salohiyati, yuksak saviyali ilmiy izlanish va tadqiqotlari bilan jamiyat ma‘naviyatiga yetarli darajada foyda keltirib o‘z hissasini qo‘shgan olim aynan adabiyotshunos, serqirra tadqiqotchi Begali Qosimovdir. Olim Qashqadaryo viloyatining ko‘hna Fazli kenti yaqinidagi Denov qishlog‘ida tug‘ilib voyaga yetdi.

Bo‘ljak olim o‘rta maktabni o‘z qishlog‘ida tamomladi. 1958-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga qabul qilindi va universitetni 1963-yilda tamomlaydi. 1963-yilda aspiranturaga kiradi. Olim 1964-yildan matbuotda ham faoliyat yuritadi. Begali Qosimovning ilk maqolasi 1964-yilda „Sirdaryo haqiqati“ gazetasida chop etilgan. Birinchi risolasi „Mirmuhsin Shermuhamedov“ nomi ostida, 1967-yilda keng ommaga namoyish etilgan.

Begali Qosimov aspiranturani tugatgandan so‘ng, 1966-yildan o‘qituvchi, dotsent, professor, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritadi. 1980-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a‘zo bo‘ladi.

Begali Qosimovning bolaligidan o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan maskanga, Vatani va millatiga muhabbati kuchli edi. Bu uning gap-so‘zlari-yu, xatti- harakatlaridan yaqqol sezilib turardi. Olimning o‘zi bu xususida “Vatanni nega sevadilar?” maqolasida: “Nega Vatanni sevadilar? Nega uni iymon qadar yuksak tutadilar? Nega barcha gunohlarni kechirish mumkin-u, Vatanga xiyonatni kechirib bo‘lmaydi? Chunki u ona singari tanhohdir, yagonadir. Chunki u biz ko‘z ochib ko‘rgan dunyomizdir. Biz voyaga yetgan ma‘vodir.”, - deya ta‘kidlagan [5]. Begali Qosimov o‘z ona qishlog‘i tarixi, madaniyati va qadriyatlarining bilimdoni edi. U bolalik kezaridan o‘zining sinchkov va teran tafakkuri bilan har bir narsaning tub mohiyatini anglashga qiziqardi. Aynan shu qiziqish soyasida u Vatanga muhabbati kuchli, millat dardi bilan yonib yashovchi jonkuyar inson bo‘lib yetishdi.

Olimning barcha kasbdoshlari Begali Qosimovni o‘zbek adabiyotining ziyrak tadqiqotchisi deya xotirlaydi. Darhaqiqat, Begali Qosimov adabiyotimizning deyarli barcha davrlari, xususan, qadimgi turkiy davr adabiyoti, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti, jadidchilik davri adabiyoti, matnshunoslik va manbashunoslik kabi yo‘nalishlarida o‘zining manfaatli mehnat faoliyatini olib bordi. Filologiya fanlarida doktori, professor Nurboy Jabborov domla haqidagi o‘z esdaliklarida: “Begali Qosimov domla Ahmad Yassaviy hikmatlaridan Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy merosigacha, o‘zbek mumtoz adabiyotining nazariy-metodologik muammolaridan Alisher Navoiy lirik asarlari va “Xamsa”sigacha, Furqat, Muqimiy va Kamiy she‘riyatidan jadidchilik va jadid adabiyotigacha, ulardan zamonaviy she‘riyat masalalarigacha tahlil va tadqiq qilgan”, - deya xotirlaydi [2: 4].

U talabalik yillaridanoq o‘zining intiluvchanligi, tunganmas g‘ayrati va ilmga chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turardi. Eski o‘zbek yozuvi, arab yozuvini mukammal bilardi. Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, Begali Qosimovning birinchi maqolasi 1964-yili “Sirdaryo haqiqati” gazetasida chiqqan. Mazkur maqola milliy adabiyotimizning inqilobiy qudrati haqida edi. Olimning birinchi risolasi esa 1967-yili “Mirmuhsin Shermuhamedov” nomi ostida chop etilgan. Shulardan boshlab Begali Qosimov yuzlab maqola, risola, monografiya, ilmiy ishlar to‘plamini nashr ettirdi.

Olim millat maorifi uchun jon fido qilgan jadidlarimiz faoliyatini chuqur o‘rgandi. Nomzodlik ishi professor G‘ulom Karimov rahbarligi ostida “Mirmuhsin Shermuhamedov (Fikriy) va uning adabiy muhiti” mavzusida himoya qilindi. Uning bu nomzodlik dessertatsiyasi muvaffaqiyat bilan yakunlandi. Aynan mazkur tadqiqot tufayli yana bir atoqli shoirning nomi tiklandi, o‘zbek adabiyoti tarixiga yana bir yirik siymo qaytarildi. Professor G‘ulom Karimov sevimli shogirdi haqida shunday yozgan edi: “Begali Qosimov ilm-fanimizning rivoji uchun zahmat chekayotgan olimlarimizdan. Hech ikkilanmasdan aytish lozimki, uning qator maqolalari, kitoblari nohaq tuhmatga uchragan Abdulla Avloniy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Siddiqiy-Ajziy singari XX asr boshlari adabiyotimiz vakillari ijodining bu davr adabiy-tarixiy jarayonida tutgan munosib o‘rmini anglashimizga xizmat qildi... B.Qosimovning pedagoglik faoliyati ham tahsinga loyiq. Uning ma‘ruzalari hamisha sermazmun,

qiziqarli va chuqur mantiqqa ega. Talabalar o‘rtasidagi shuhrati va obro‘-e‘tiborining boisi ham shunda” [3].

Begali Qosimov nomzodlik dissertatsiyasi himoyasidan so‘ng to‘xtab qolmadi. Endi u o‘zbek adabiyotining o‘zigacha bo‘lgan davrga qadar panja ortidan qaraladigan, qip-qizil bo‘xtonlar va tuhmatlar yog‘dirilgan jadid adabiyotini keng ko‘lamda nazariy o‘rganishni oldiga maqsad qildi. Domla umrining mazkur pallasini u bilan yelkadosh bo‘lib ijod qilgan atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov shunday eslaydi: “Biroq bu paytga kelib, mafkuramizda yana bir evrilish sodir bo‘ldi — endi jadidlar masalasini umuman tilga olish mushkul bo‘lib qoldi. Bu mavzudan voz kechish — o‘zbek adabiyotining chorak asrlik tarixidan voz kechish, demak edi. XX asr birinchi choragidagi adabiyot tarix sahifalaridan o‘chirib tashlansa, adabiyot rivojida uzilish ro‘y berar, uning tadrijiy rivojlanish yo‘llarini izohlash mumkin bo‘lmay qolardi. Xullas, bu yerda mavzuni tasdiqlatish uchun anchagina mug‘ombirlik ishlatishga to‘g‘ri keldi. Begali ishning mavzuini “XX asr boshi o‘zbek poeziyasi (Inqilobiy she‘riyatning shakllanishi va taraqqiyot masalalari. (1905—1917)”, deb belgiladi”[6]. Mafkuraviy to‘siqdan chiroyli chiqib keta olgan Begali Qosimov shundan so‘ng jadid adabiyoti namoyandalari merosini katta ko‘lamda ilmiy-nazariy jihatdan tahlil va tadqiq etdi. Jumladan, Mirmuhsin Shermuhammedov, Abdulla Avloniy, Ismoilbek Gaspirali, Behbudiy, Ajziy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Sidqiy-Xondayliqiy, Ibrat, So‘fizoda, Yusuf Saryomiy kabi jadidlarimizning faoliyatini chuqur o‘rgandi. Avval o‘rganilmagan jadidchilik va jadid adabiyoti namunalarini boshqa davr adabiy muhitidagi asarlardan umumiy va xos tomonlarini belgiladi. “Jadidchilikning xalqda milliyat tushunchasi, maorif va ma‘naviyatga intilish, yangilangan ijtimoiy tafakkur shakllanishidagi milliy ozodlik, istiqloqlilik harakatlarining maydonga kelishidagi rolini o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining paydo bo‘lishiga bergan turtkisini rad etib bo‘lmas misollar bilan ko‘rsatib berdi. Yangi o‘zbek (jadid) adabiyotini o‘rganish bo‘yicha o‘z an‘analari, tadqiq usullariga ega bo‘lgan xalqaro miqyosda tan olingan ilmiy maktab yaratdi” [2: 4].

1984-yili “XX asr boshi o‘zbek poeziyasi (inqilobiy she‘riyatning shakllanishi va taraqqiyoti) masalalari. 1905-1917” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qiladi. Begali Qosimov faoliyatining eng yuksak cho‘qqisi hisoblangan “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” kitobi 2002-yilda chop etildi. Binobarin, olim bu kitobni yozish bilan birgalikda “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” atamasini ilmiy muomalaga olib kirdi. Bu xususida Xurshid Davron: “Bu kitob faqat olis o‘tmish hodisoti haqida emas, bugungi kunda ham o‘zbek ziyolisini qiynayotgan savollarga javob topishga yordam va yo‘llanma beradigan, ma‘rifatparvar bobolarimiz tajribalaridan, ularning xato va adashuvlaridan ogohlantiradigan, yutuq va kamchiliklaridan xulosa chiqaradigan dasturilamaldir”, - deya e‘tirof etadi [1]. Mazkur kitob ommaga tadqim etilgach, O‘zbekistondagi Milliy Uyg‘onish davrini, uning adabiyotini o‘rganishni istagan ilm istagidagi yoshlar Begali atrofiga uyusha boshladi. Buning natijasida butun bir ilmiy maktab shakllandi. Bu esa, keyinchalik Milliy universitet tarkibida Milliy Uyg‘onish davri adabiyoti kafedrasini tashkil qilishga imkon berdi. Kafedraga to‘plangan ilmiy jamoa qisqa muddatda katta ishlarni amalga oshirdi.

Olim yozgan kitoblar, jadidlarga bag‘ishlangan monografiyalar, risolalar, maqolalar Begali Qosimovning nomini faqat bizda emas, chet el ilmiy doiralarida ham tanitdi. Uning jadidchilik haqidagi tadqiqotlari chet ellarda ham e‘tibor qozondi, e‘tirof etildi. Amerika, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Rossiya, Koreya, Ukraina, Afg‘oniston, Eron, Qozog‘iston, Qirg‘izistonda ham asarlari chop etildi, kitoblariga taqrizlar yozildi.

Professor Bahodir Karimov olim to‘g‘risida mushohada yuritib: “Begali Qosimov so‘zi amaliga muvofiq keladigan haqiqatgo‘y va to‘g‘riso‘z, chin ma‘nodagi millatparvar bir inson edi. Begali Qosimov adabiyotning qay bir sohasi to‘g‘risida yozish yoki gapirish lozim bo‘lsa, biror manbani izlab yurmasdan qo‘yilgan masala yuzasidan bemalol soatlab gapirishi mumkin edi. Domla qalbi daryo inson edi. Ilmga limmo-lim to‘lib turgan bir daryo ediki, undan qanchadan-qancha ilmga chanqoq shogirdlar suv ichgani bilan kamaymaydigan, aslo tugamaydigan bir daryo olim edi”, - deya ta‘kidlagan [4]. Begali Qosimov bitiklarini o‘qir ekanmiz, ularning mohiyatida millat adabiyoti, ma‘naviyati, maorifi, shonli o‘tmishi, buguni va kelajagi xususida so‘z boradi. Asarlarining har birida millat dardi o‘ziga xos ifoda

etiladi. Darhaqiqat, Begali Qosimov millat dardi, uning kechmishi va ertasi uchun yonib- kuyib yashagan, xalq maorifi uchun cheksiz qayg‘urgan benazir olim, haqiqiy inson edi. U maqola avvalida ta’kidlaganimiz kabi odamlilik baxtiga musharraf bo‘lgan chin olim bo‘lib yashab o‘tdi. Xulosa qilib aytganda, professor Begali Qosimov o‘zbek mumtoz adabiyotining teran mushohadali nazariyotchisi, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasining yirik mutaxassisi, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotini o‘rganishning ilk tadqiqotchisi va asoschisi, umuman olganda, chin olimlik baxtiga erishgan millat fidoyisi sifatida xotiralarimizda abadiy qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davron X. “Adabiyot – oinayi millatdur”, 2000-y.
2. Jabborov N. “Millat qalbidagi olim”, “Xalq so‘zi” gazetasi 2022-y 271-son.
3. Jo‘raqulov U. “Uch bor o‘limdan qolgan, millat dardi bilan xastalangan “so‘nggi jadid”, “Ma’naviy hayot” jurnali 2022-y. 4-son.
4. Karimov B. “Toza bir muallim edi”, “O‘zbekiston san’ati va adabiyoti” gazetasi 2007-y 39-son.
5. Qosimov B. “Vatanni nega sevadilar?”, “O‘zbekiston san’ati va adabiyoti” gazetasi 2009-y. 50-son.
6. Sharafiddinov O. “So‘nggi jadid qissasi”, “O‘zbekiston san’ati va adabiyoti” gazetasi 2006-y. 24-son.